

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UCHINCHI RENESSANSNING ILMIY-MA'NAVIY ASOSLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

TO'PLAMI



Navoiy shahri
2021-yil, 12-aprel

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

**"MILLIY G'UYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI"
KAFEDRASI**

**UCHINCHI RENESSANSNING ILMIIY-MA'NAVIY
ASOSLARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

T O ' P L A M I



Navoiy, 2021-yil 12-aprel

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2-martdagi 78-F-sonli Faroyishining 2-ilovasiga asosan, 2021 yil 12 aprel kuni Navoiy davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini tomonidan o'tkaziladigan "Uchinchi Renessansning ilmiy ma'naviy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga oid maqola va tezislardan iborat.

Mas'ul muharrirlar:

Texnika fanlari doktori, professor **B.B.Sobirov**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **A.X.Kandaxarov**

Taqrizchilar:

Tarix fanlari nomzodi, dotsent **R.M.Qarshiyev**
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent **M.Munavvarova**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **M.G' Raxmatov**

Tahrir guruhi:

X.Abuyev (Phd), O.Eshdavitov, H.O'sarov N.Ne'matova,
R.Karimova, G.Sultonova, N.Egambardiyeva.

Texnik muharrir: M.Norqobilov

Ilmiy-amaliy konferensiyaning tashkiliy qo'mitasi:

B.B.Sobirov	NavDPI rektori, tashkiliy qo'mita raisi
S.O.Xujjiyev	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
D.U.Ro'ziyev	O'quv ishlari bo'yicha prorektor
X.R.Qurbonov	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor
X.X.Turaynov	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
R.M.Qarshiyev	Tarix fakulteti dekani
A.X.Kandaxarov	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra mudiri, t.f.f.d. (Phd), dotsent.
M.G' Raxmatov	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasini dotsenti, t.f.f.d. (Phd)
M.Munavvarova	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi katta o'qituvchisi, f.f.n.
H.O.Abuyev	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (Phd)

**4-SHO'BA. MODERNIZATSIYALASHUV JARAYONIDA YOSHLARNING KASBIY-AXLOQIY,
HUQUQIY VA MA'NAVYI MADANIYATINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

МАДАНИЙ-МАЪРИФIIY MUASSASALAR FAOLIIYATI ORQALI BARKAMOL AVLODNI TARBIIYALASH X. Xamidov, professor, Toshkent Irrigatsiya va kashlok xujjaligi mekanizatsiyalash muhandislarini instituti	185
ESHLAR MA'NAVIIYATINI YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILADIGAN MANBA Xurshid Kurbonov, Navoiy davlat pedagogika instituti tuzilmasidagi Qatag'on kurbonlari хотираси музейи direktori, tarix faklari komzodi	187
BUTUNGI ESHLAR TARBIIYASI VA MA'NAVIIYATINI OSHIRISHDA ONLA MAS'ULIYATI P.M. Karshava, t.f.n., docent, NavDPI Tarix fakulteti dekani	189
HUQUQIY SAVODXONLIKNI YUKSALTIRISHDA YOSH AVLODNING UYMOYU FAOLIGI Raxmatov Murod G'aybullayevich "Milliy g'oya, shahariviat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasini dotsenti	191
JAMIYATDA ESHLAR FAOLIIYATINI OSHIRISHDA MA'NAVIIY TARBIIYANING URNI Normatov Otabek Maxamatjonovich, tarix faklari buyicha falsafa doktori, katta uqituvchi TIKXMMI, Toshkent	192
MODERNIZATSIYALASHUV JARAENIDA MA'NAVIIY TARBIIY VA KITOBXONLIK MADANIYATI Musfara Muzavvarova, Falsafa faklari komzodi Navoiy davlat pedagogika instituti	194
"XAYRATUL-ABROR" DOSTONIDA BARKAMOL SHAHS OBAZINING BADIYIY-ESTETIK TALQINI H.M. Egambersheva, NavDPI, uqituvchi F.S. Abdulkhalikov, talaba	195
ALIIYER NAVOIY ASARLARIDA SHARQONA KASBIY-AXLOQIIY, HUQUQIIY- MA'NAVIIY MADANIYATNING ULUG'LANISHI H.M. Egambersheva, NavDPI uqituvchi Sh. V. Xolmurova, NavDPI talaba	197
MILLIY QADRIYATLAR TALABA YOSHLARNI TARBIIYALASH VOSITASI SIFATIDA Ahatova Durdona Aktamovna - NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasini dotsenti, p.f.n. Ahatova Xilola Aktamovna - NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasini o'qituvchisi	200
MODERNIZATSIYALASHUV JARAENIDA ESHLAR MA'NAVIIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA TARIHIIY-MADANIY EDIRLIKLARINING URNI (Navoiy viloyati tarixiiy eDIRliklari misolida) Savrieva Jasur Faxradillovich, mustaqil tadqiqotchi Jalilov Marsel, NavDPI magistranti	201
MASOFAVIY TA'LIM - OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL XUSUSIY TARMOQLAR NavDPI "Biologiya o'qitish metodikasi" Kafedrasini o'qituvchisi O.S. Abzalov	203
AHMAD G'AZZOLIY MEROSINI O'RGANISH UCHINCHI RENESSANSNING MA'NAVYI ASOSI Xodjayeva Fotima Nabixonovna, BuxDU, 1-bosqich doktoranti	200
ESHLARINING FAOL FUKAROLIK POZIIYASI VA TASHABBUSSORLIGINI YUKSALTIRISHDA MUHOQOT MADANIYATINING URNI A.M. Egambersheva, NavDPI "Tarix uqitish metodikasi" kafedrasini katta uqituvchisi	204

kanalini o'rnatishda maxsus tunel texnologiyasi qo'llaniladi. Tunel maxsus umumiy kirish tarmoq infratuzilmasini qo'llaydi, u orqali boshqa tarmoqning inkapsulatsiyalangan ma'lumotlari o'tkaziladi. Bunda ushbu ma'lumotlarni uzatish umuman boshqa ma'lumot uzatish hujjati asosida amalga oshirishi mumkin, uni o'z maqsadiga ko'ra umumiy kirish tarmog'i qo'llaydi. Inkapsulatsiyalangan ma'lumotlar paketida doimo marshrutizatsiya bo'yicha qo'shimcha axborotlar o'zlashtiriladi, ushbu ma'lumotlar paketi tranzit orqali umumiy kirish tarmog'iga o'tadi. Umumiy kirish tarmog'i uzellariga mantiqiy yo'l tunel deb ataladi. Maqsadga erishish uchun inkapsulatsiya bekor qilinadi, va paket ko'rsatma bo'yicha uzatiladi. Istalgan tarmoq tranzit tarmog'i bo'lishi mumkin, u o'z tabiiy masofasi ko'lami bilan bog'lanuvchi nuqtalarni, shuningdek internetni qamrab oladi. VPN-tarmoqlarni qurishda turli tunel texnologiyalari qo'llanilishi mumkin, ular ko'pincha tarmoq tavsifini aniqlaydi. Asosiy tunel texnologiyalariga MPLS, IPsec, L2TP, IP-in-IP, GRE kiradi. Bunda tranzit tarmoqda tunel yaratish uchun virtual xususiy tarmoq mijosi va serveri bitta inkapsulatsiyalangan ma'lumot uzatish hujjatini qo'llashi kerak. Tunel orqali aloqa hujjatlari 1 jadval.

Hujjat	Tavsifnomalari
PPTP	IP-tarmoqda sarlavhalar uchun IP-, IPX- va NetBEUI-trafikni inkapsulyatsiyalash imkonini beradi, masalan Internet; u raqamlash usulini aniqlamaydi;
L2TP	Deytagrammalarni yetkazish uchun "nuqta-nuqta" rejimini qo'llovchi istalgan hujjatlardan foydalangan holda IP-trafikni raqamlash va uzatish imkonini beradi. Masalan, ularga IP hujjat, kadrlarni qayta translyatsiyalash va uzatishning asinxron rejimi (ATM) kiradi;
IPsec	IP tarmoqlarida uzatish uchun IP sarlavhali IP hujjat foydali axborotini raqamlash va inkapsulyatsiyalash imkonini beradi;Belgilangan jihoz va dasturiy ta'minotga bog'lanmagan;
IP-IP	IP-deytagramma qo'shimcha IP sarlavha yordamida inkapsulatsiyalanadi. IP-ning asosiy vazifasi ko'p manzilli marshrutizatsiyani qo'llamaydigan tarmoq qismlarida ko'p manzilli trafikni IP tunnellar hisoblanadi.

Hozirgi kunda virtual tarmoq yaratish uchun ko'pincha PPP (Point-to-Point Protocol)hujjatining inkapsulyatsiyasi bo'lgan boshqa hujjat qo'llaniladi, odatda u IP (masalan, PPTP) yoki Ethernet (masalan, PPPoE) bo'lishi mumkin. PPP hujjatining inkapsulyatsiyasi «nuqta-nuqta» tipidagi ajratilgan kanallar bilan bog'langan marshrutizatorlarda yoki mijozlar va olisdagi ulanishlarni bog'lovchi kommutatsion serverlarda (RAS) qo'llanilishi mumkin. IPsec hujjati boshqa hujjatlardan farqli ravishda ko'p vazifali hisoblanib, u faqatgina istalgan hujjatlarni qo'llovchi IP-trafikni uzatish imkonini berib qolmay, balki uni haqiqiylikni tasdiqlash va raqamlashda amaliyotda aynan undan foydalaniladi. VPNtexnologiyasi umumiy kirish tarmoqlarida ajratilgan resurslar doirasida axborotlarni yopiq holda almashishni ko'zda tutar ekan, qoidaga ko'ra, VPN shifrlangan aloqa kanallarini birlashtirish imkonini beradi, masalan, Internetning nazoratga olinmagan kanallarini o'zaro aloqa uchun qo'llashda tashkilotning bir necha idoralarni yagona tarmoqqa birlashtiradi. Bu usulda tashkil etish uchun asosan, tijorat tarmog'ini olisdagi xususiy kabelli bo'linmalar o'rnatishga qo'yish zaruriyatiziz tijorat tarmog'idan foydalanish yoki simsiz bog'lanishlarni o'rnatish, uning o'rniga mavjud umumiy foydalanish tarmog'ini qo'llash mumkin.

AHMAD G'AZZOLIY MEROSINI O'RGANISH UCHINCHI RENESSANSNING MA'NAVY ASOSI

Xodjayeva Fotima Nabixonovna,
BuzDU, 1-bosqich dekteranti

Jahon ilm-fani uchun Sharqda yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etiladi. Ayniqsa, tasavvuf tarixida muhim iz qoldirgan musulmon dunyosining eng buyuk mutasavvufilaridan biri Ahmad G'azoliydir (1061-1123). U o'z ilmiy faoliyati va hayoti bilan Sharq va G'arb falsafasi ilmiiga o'z hissasini qo'shib, g'oyaviy-ma'naviy, siyosiy, madaniy va ahloqiy qarashlarning shakllanishiga ta'sir o'tkazdi.

Uning to'liq ismi Inom Makduddin Ebul-Futuh Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad G'azoliy at-Tusiydir. Uning kunyasi Ebul-Futuh bo'lib, Zayniddin, Majduddin va Ishhabuddin kabi taxallular bilan tanilgan. Manbalarda o'zi haqida qo'llanilgan ifodalardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi: "Malikul-abdal", "Sultonut-tariqat", "Shaykul-mashoyih", "Juneydi-soni", "Kurratu ayni Muhammad Mustafo", "Sahibi karamat va ishorat", "Jamohul-islom" [1, 2-3]

Ahmad G'azzoliyning bolalik va yoshlik yillari haqida kam ma'lumot mavjud. Ahmad G'azzoliyning yoshligi Tusda o'tgan, u erda u fiqh, matematika va so'fiy ilmlarini o'rgangan. Masbalarda aytilishicha, u otasidan va onasidan erta ayrilgan. Uning otasi o'g'illari - Muhammad va Ahmadga yaxshi ma'lumot berishga intilgan. Ikkala aka-uka boshlang'ich ma'lumotni Tus madrasasida otasining yaqin do'sti bo'lgan Abu Ali Ahmad Ibn Muhammad Rozkoniydan olgan.

Ahmad G'azzoliy tasavvuf tarixida tasavvufiy merosni anglash va uzatish borasida ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazaridan ko'nga ko'ringan shaxsdir. U taniqli buyuk tariqat silsilasi oralig'idagi muhim halqa hamda asarlari bilan o'zidan keyingi so'fiylarga ta'ir ko'ratgan muhim siymodir.

Tasavvuf tarixidagi barcha tariqatlar ma'naviy bir ranjir bilan yo Aliga yoki Abu Bakr vositasi bilan payg'ambarimiz Muhammadga borib taqaladi. Bu jihatdan Ahmad G'azzoliy payg'ambarimiz ma'naviy ma'rosini bir silsila ranjiri bilan o'zidan keyingilarda borishda ahamiyatli halqadir. Ahmad G'azzoliyga qadar o'z tariqat silsilasi shu shakldadir: Muhammad (s.a.v), Ali ibn Abu Talib, Hasan al-Basriy, Habib al-Ajamiy, Davud at-Taiy, Ma'ruf al-Karziy, Sari al-Saqatiy, Abul Qosim al-Junayd, Abu Ali Rudboriy, Abu Ali Kotib, Abu Usmon al-Mag'ribiy, Abul Qosim Ali al-Gurganiy, Abu Bakr Nassaj at - Tusiy (Ahmad G'azzoliy ustoz), Ahmad G'azzoliy.

Ahmad G'azzoliy ko'plab talabalar va asarlarni qoldirdi. Tasavvufda Ahmad G'azzoliy shogirdlari, Aya al-Qudat Hamadoniy, Hakim Sanai G'annaviy, Abul Fazl Sain ibn Abdulloh So'fiy Bag'dodiy, Shayx Abdulvohid Amidiy, Ruzbehoni Kabir (Miarda) Bazim Inor edi.

Ahmad G'azzoliyning tasavvufiy qarashlarining markazida Imom G'azzoliyda bo'lgani kabi qalb masalasi asosiy o'rinda turadi. Ahmad G'azzoliy qalbn inson shaklining hukmdori deb qabul etishini, qul va xizmatchilar o'rnida bo'lgan tananning barcha a'zolari yaxshi, yomon bo'lishiga ko'ra yomonligini aytar ekan, qalbn inson badanidagi muflaq hokimiyatiga alohida e'tibor qaratadi.

Ahmad G'azzoliyning ma'naviy ma'rosida asosiy mavzu shubhasiz ishq mavzusidir. Ishqni - azaliy va ilohiy haqiqat holida tushuntiradi. Butun mavjudotni va insonni to'g'ri yo'lga boshlagan quvvat ishqdir. Uning asarlarida katta ahamiyat qaratilgan mavzulardan yana biri ibodat mavzusidir. Alloma o'z suhbatlarida, vazlarida barchani, maktablarida esa muridlarini ibodat va itoatga buyurur ekan, bu yo'lga kirgan har bir kishiga shariatning kerakligini alohida qayd etadi.

Ahmad G'azzoliy arab va fors tillaridan yaxshi foydalangan va ikki tilda ham asarlar yozgan so'fiy mualliflaridan biridir. Ahmad G'azzoliyga tegishli bo'lgan asarlar ro'yxatida yuzdan ziyod nomlar mavjud bo'lib, ulardan yigirmaga yaqini shu kungacha to'liq saqlanib qolgan va boshqa ko'plab qismlarga bo'linib saqlanib qolgan. Ular asosan arab va fors tillarida yozilgan va so'fiylik muammolariga bag'ishlangan.

Ahmad G'azzoliyning tasavvufiy muhabbat haqidagi g'oyalari fors tasavvufiy adabiyotida va ayniqsa sho'riyatida chuqur iz qoldirib, tasavvufchilarning Xudoga bo'lgan muhabbatini madh etdi. Uning eng ahamiyatli sho'ri asari "Savonih ul - ushsuq" dir. Asar bir debocha va yetmish besh fasldan iborat.

"Savonih ul - ushsuq" asarida keltirilgan ko'plab g'oyalardan keyingi sho'irlar Farididdin Attor, Sa'diy Sheroziy, Faxriddin Iroqiy va boshqalar foydalanganlar. "Savonih ul - ushsuq" asari - bu fors tasavvufi tarixidagi birinchi risola, ilohiy sevgi psixologiyasiga bag'ishlangan hamda tasavvufning keying rivojlanishiga katta ta'ir ko'ratgan.

Ahmad G'azzoliyning Bog'dodda bo'lgan vaqtda bergan vazlari va suhbatlarining bir yorda to'plagan kichik hajmli arab tilida yozilgan asari "Majolis"dir. Bu asarning nusxasi Dublinda "Chester Betty" kutubxonasida 3682/2 raqam ostida saqlanadi. Asarda ibodatlarda ixlosli bo'lish masalasi, shuningdek, o'zidan so'ralgan savollarga bergan javoblaridan iborat. Asarda zikr etilgan qarashlarning oyat, hadis va Payg'ambar qisqalari bilan asoslantirilgani yaqqol ko'nga tashlanadi. Asar Ahmad Mujohid tomonidan fors tilida tarjima qilingan. [2,283].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buyuk mutafakkirlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini yaratgan asarlarini chuqur tadqiq etish, ulardagi qimmatli ma'lumotlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotda keng tadbiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Allomaning ilmiy merosini o'rganish yosh avlodni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasizdir.

Adabiyotlar

1. Halil BALTACHI Tasavvuf- ilmiy tadqiqot jurnali "Sof muhabbat sahibi": Ahmad G'azzoliy va So'fiylik Konsepsiya 32 [2013/2], 2-3-bet

2. Muzafarov.F.D "Imom G'azzoliy va Ahmad G'azzoliy ma'rosida ta'savvufiy tajribaning ahamiyati" Buxoro davlat universiteti ilmiy xabarioti/Buxoro-2020/1,283-bet.